



O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIKDAN KEYINGI ZAMONAVIY MASJIDLARIDAGI SHAXARSOZLIK VA ME'MORIY YECHIMLARI

Qoraboyev Shokirjon Jumaqo'zi o'g'li
Toshkent arxitektura va qurilish universiteti
1-bosqich PHD doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15788349>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil
Ma'qullandi: 28-Iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

islom, masjid, mo'min, musulmon, minor, zomonaviy, me'moriy, hi-tech.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurtimiz hududlarida qurilgan masjidlarning hozirgi kunga qadar rivojlanish bosqichlari haqida malumot berilgan. Shu bilan bir qatorda zamonaviy masjidlarning haxarsozlik va memoriy yangiliklari haqida fikr yuritilgan.

Mamlakatimizda mustaqillikdan keyin an'anaviy va zamonaviy me'morlik usullarini uyg'unlashtirgan holda masjidlar qurilmoqda (masalan, Buxoriy yodgorlik majmui, Toshkentdagi Nosirxon jome masjidi, G'azalkentdagi Olimjon jome masjidi va boshqalar). Masjidlar – mo'min musulmonlar uchun eng muqaddas va qadrlı joy hisoblanadi. Faqatgina ibodat maskani sifatida emas, o'zaro mehr oqibat, hamjihatlik va do'stlik rishtalarini bog'lovchi joy sifatida ham e'tiborga molikdir.

Masjid – barcha mo'min-musulmonlar uchun Allohga ibodat qiladigan muqaddas joy hisoblanadi. "Masjid" so'zi arabchadan "ibodat qiladigan joy, sajdagoh" deb tarjima qilinadi. Muqaddas Islom dini dunyo bo'ylab eng keng tarqalayotgan din hisoblanadi. Shuning uchun ham mo'min, musulmonlarning ibodatlarini go'zal tarzda ado etishlari uchun masjidlar qurilishi yildan-yilga butun dunyo bo'ylab oshib bormoqda. Jumladan bizning diyorlarimizda ham yildan-yilga go'zal va muhtasham masjid binolari qad roslamoqda. Muqaddas islom dini bizning o'lkalarimizga kirib kelgandan boshlab aniqroq qilib aytadigan bo'lsak VIII-asr boshlaridan boshlab masjidlar qurilishi boshlangan.

Masjidlar birinchi navbatda shaharlarda, keyinchalik qishloqlarda so'ng mahallalarda barpo etila boshlagan. İlk qurilgan masjidlar ko'rinishlari hozirgi kundagidan bir muncha farq qiladi. Masjid nomoz xonasining qibla tomonida mehrob, undan o'ng tarafda esa vazxonlik uchun mo'ljallangan minbar ham doimiy ravishda masjidlarda bo'lgan. Masjidning hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo'lgan. VIII-asrdan boshlab bizning diyorlarimizda masjidlar qurilishi boshlangan bo'lsa. Hozirgi kunga kelib bizning mustaqil O'zbekistonimiz hududida 2000 dan ziyod masjidlar o'z faoliyatini yurutib kelmoqda.

Masjidlar VII-VIII asrlardan turli musulmon mamlakatlarning mahalliy me'morlik an'analarida etakchi o'rinni egallab, o'ziga xos uslubda qurila boshlagan. Asosan murabba yoki to'g'ri to'rtburchak tarxli, markaziy qismida xonaqohi bo'lgan, hovli atrofi ravoqli ayvonlardan iborat bo'lgan. 8 qirrali, gumbaz tomli va ko'p ustunli, galereyali masjidlar tosh, yog'och, g'isht,

rangli koshin bilan hashamdor bezatilgan. Markaziy Osiyo'da dastlabki masjidlar Buxoro arki ichida 713-yilda Qutayba ibn Muslim tomonidan mahalliy otashgoh butxona o'rnida qurilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Samarqanddagi birinchi masjid Hazrati Xizr masjidi o'rnida bo'lgan. Har bir davrda masjidning bezak ishlari o'sha davrda urf bo'lgan qurilish maxsulotlaridan keng foydalangan tarzda bezatilgan.

Dastlabki davrlarda bezak berish mahsulotlari keng bo'lmaganligi sababli arxitekturada, hususan masjidning bezak ishlarida ham bor mahsulotlardan foydalangan holda bezak ishlari o'z nihoyasiga etkazilgan. Vaqt o'tishi bilan xalq xunarmandchiligidagi san'at turlari rivoj topishi bilan X-XI asrlarda masjid me'morligida ganch o'ymakorligi, g'ishtni bezakli qilib terish usullari keng tarqala boshlagan. (Termizdagi Chor ustun masjidi, Deggaron masjidi, Turkmanistondagi Sherkabir masjidi va boshqalar). Keyingi asrlarda esa masjid turlari va tuzilishi o'zgarib, u shaharning eng ko'zga ko'ringan yirik me'moriy jamoat binolari qatoridan o'rin olgan. Shahar markazlarida jome masjid, juma masjid va guzar, mahalla masjidleri keng tarqalgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalarda bo'lgani singari zamonaviy masjidleri qurilishida ham olamshumul yangiliklar bo'layotganligini ayta olamiz. Jumladan, Toshkent shahrida ulug' allomalar nomidagi "Suzuk ota", "Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf", "Fayzulla xo'ja o'g'li Murod hoji", Surxondaryo viloyatida "Hakim Termiziy", "Shayx Shamsiddin", "Imom Nizomiddin Sangardakiy", Namanganda "Muhammad al-Amin", Farg'onada "Chiligijiyda", Navoiyda "Abu Bakr Siddiq" va Toshkent viloyatida "Abu Hurayra" masjidleri hamda Buxorodagi Qorovulbozor tumanida "Abdulloh ibn Muborak" nomli jome masjidlarimizdir.

Minor jome masjidi 2014-yilda rasman ochilgan. Masjid binosi an'anaviy sharqona va o'zbekcha uslubda qurilgan bo'lib, u ikkita minora va osmon rangidagi gumbazga ega. Masjidning ichki qismi naqsh uslubida bezatilgan. Xonaqohning umumiy maydoni 1326 m.kv ni tashkil etadi. Masjid 7000 dan ortiq namozxonga mo'ljallangan. Umumiy maydoni 4.5 gektarni tashkil etadi.



1-rasm. Yunusobod tumanidagi Minor jome masjidi.

Namangan shahrida 2021-yilda ochilgan Yusufxon o'g'li Qosimxon masjidi hududi 1.8 gektar, xonaqoh 2000 m.kv.ni tashkil qiladi. Masjid zamonaviy hi-tech uslubida qurilgan,

ichki sig'imi 4,5 ming o'rinli, tashqi hovliga esa 9 ming odam joylashadi. Masjid minoralari balandligi 45 m, gumbazi balandligi 36 m, aylanasi 24metr.



2-rasm. Yusufxon o'g'li Qosimxon masjidi

2023-yilning 22-mart sanasidan Toshkent shahar Olmazor tumanida rasmiy ravishda ishga tushgan "Islomobod" jome masjidi eng yirik jome masjidi bo'lib, har biri 63 metrdan 4 minoradan tashkil topgan.



3-rasm. "Islomobod" jome masjidi

Chilonzor tumanida hi-tech usulida bunyod etilgan "Hasanxon qori" jome masjidi fikrimizga yoqqol misol sifatida ayta olamiz. Masjidda naqishlardan juda ham kam foydalanganligi insonlarni masjidga ibodat uchun kirganlarida ularni xayollarini chalg'ituvchi narsalardan vos kechish sifatida ishlanganligini ko'rishimiz mumkin.



4-rasm. Chilonzor tumanida hi-tech usulida bunyod etilgan “Hasanxon qori” jome masjidi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki so‘ngi yillarda yurtimiz hududlarida qurilgan masjidlarning hajmiy tarxiiy echimlari, tashqi dizayni va ichki dizayni xolatidan chetga chiqib zamonaviy hi-tech usulida qilingan masjidlarimizni ayta olamiz.

References:

1. O‘zMe.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Dadajon Q. Mamlakatimiz hududida bunyod etilgan masjidlarning rivojlanish tarixiga doir qarashlar. Scientific Progress. 2021.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Minor_masjidi
4. <https://shosh.uz/toshkent-masjidlari-tarihidan/>

INNOVATIVE
ACADEMY